

13. Лакофф Дж. Когнитивное моделирование: (Из книги «Женщины, огонь и опасные предметы») // Дж. Лакофф // Язык и интеллект. – М., 1995. – С. 143 – 184.
14. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике // З.Д. Попова, И.А. Стернин. – Воронеж: Истоки, 2001. – 191 с.
15. Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. - С. 267 – 279.
16. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1997. – 411 с.
17. Алефиренко Н.Ф. Фразеологическое значение и концепт // Н.Ф. Алефиренко // Когнитивная семантика: Материалы II Международной школы – семинара по когнитивной лингвистике, 11- 14 сентября 2000 г. / Отв. ред. Н.Н. Болдырев: В 2-х ч. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2000. - Ч.2.- С. 33 – 36.
18. Ляпин С. Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Архангельск, 1997. С.11-35.
19. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры // Опыт исследования. - М., 1997. С.40-43.

O'ZBEK VA FRANSUZ FRAZEOLOGIYASIDA "OLAMNING LISONIY MANZARASI " AKSINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Bazorgul GULIMETOVA
UrDU, Xorijiy filologiya fakulteti katta o'qituvchisi

Annotation. Inson olam manzarasiga mos ravishda begona madaniyat bilan aloqa qiladi, bu dunyoda o'zining hatti-harakatlarini ruxsat va ta'qiqlar tizimi orqali shakllantiradi. Dunyo modeli shaxs va jamoa uchun hulq-atvor dasturi bo'lib xizmat qiladi, bu inson tomonidan tashqi dunyoga ta'sir qilish uchun qo'llanadigan tadbirlar to'plamini, ulardan foydalanish qoidalarini va ularning motivatsiyalarini belgilaydi.

Ushbu maqolada dunyoning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmning muhim o'rni fransuz va o'zbek tillari misollarida bayon etilgan.

Insonlar o'zaro bir-birini tushunsa va bir-birining ma'naviy dunyosiga kirishsa, ular orasida muloqot paydo bo'ladi. Odamlarning ma'naviy dunyosi kesishuvi ular uchun umumiy g'oyalar tizimi mavjudligi sababli yuzaga keladi. Dunyoning lisoniy manzarasi - ba'zi odamlar orasida va inson faoliyatining madaniy - ijtimoiy jahhalari (ilm - fan, falsafa, san'at va h.k.) orasida o'ziga hos vositachidir.

Inson olam manzarasiga mos ravishda begona madaniyat bilan aloqa qiladi, bu dunyoda o'zining hatti-harakatlarini ruxsat va ta'qiqlar tizimi orqali shakllantiradi. Dunyo modeli shaxs va jamoa uchun hulq-atvor dasturi bo'lib xizmat qiladi, bu inson tomonidan tashqi dunyoga ta'sir qilish uchun qo'llanadigan tadbirlar to'plamini, ulardan foydalanish qoidalarini va ularning motivatsiyalarini belgilaydi.

“Olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi insonning olam haqidagi tushunchasini o'rganishda tuziladi. Olam - bu inson va muhit o'zaro ta'siri, olam tasviri (kartinasi) - muhit va inson haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir. Dunyo tasviri bilan olamning lisoniy olami o'rtasida murakkab bog'liqliklar mavjud.

Madaniyat semiotikasi bo'yicha tadqiqotlar natijasida shu ta'kidlanadi-ki, “turli belgilar tizimi dunyonи turlicha modellashtiradi”. Shunday taxmin qilindi-ki, dunyo modeli asosiy semantik qarama- qarshiliklar to'plami sifatida, butun dunyo halqlari uchun universal xarakterga ega (oq -qora, o'lmas o'lim, yaqin-uzoq, baland-past va hk.). Til bevosita ikkita jarayonda qatnashadi. Birinchidan, uning asosida dunyo tasviri shakllanadi. Ikkinchidan, tilning o'zi maxsus leksika yordamida inson madaniyatini dunyoning boshqa tasvirlarida ko'rsatadi.

Hozirgi kunda bu tushuncha quyidagi faktorlarni o'z ichiga oladi:

1. Dunyo tasviri ikki qutb o'rtasida oraliq mavqega ega: fan va dunyoqarash
2. Dunyo tasviri ijtimoiy amaliyotni o'z ichiga olgan dunyoqarash
3. Dunyo tasviri ilmiy bilim turi

XX asr oxiriga kelib bu muammoga bag'ishlangan ko'pgina ishlar paydo bo'ldi. 60 - yillardan boshlab, olam tasviri muammosi tilni modellashtirish tizimlarini o'rganishda semiotika doirasida ko'rib chiqildi. Ushbu yondoshuvda madaniyat jamoaning irsiy bo'limgan xotirasi sifatida talqin etiladi va uning asosiy vazifasi dunyo modelida o'z ifodasini topadigan insonni o'rab turgan dunyoni tizimli tashkil etilishi tan olinadi.

V.A. Maslov ta'kidlashicha “dunyo tasvirini dunyo haqidagi bilim” deb atash mumkin, til anglash jarayoni talablarini bajaradi. Dunyo konseptual tasviri turli odamlarda turlicha bo'lishi mumkin, masalan, turli davr, turli yoshdagilar guruhi, turli

ilm sohalari va h.k. Turli tilda so'zlashuvchi kishilar ma'lum sharoitlarda dunyo tasvirini yaqin konseptual holatda, bir tilda so'zlashuvchilar turli tasvirga ega bo'lishi mumkin.

Bosh miya tashqaridan kelgan ma'lumotni obrazga aylantiradi. Buyum, narsa obrazi - narsaning o'zi emas, balki uning aksidir. U predmetning o'zi bilan bevosita mos kelmaydi. Narsalarning xususiyatlarini cheksiz sondan umumlashtirish va mavhumlashtirish va qayd etish obrazni real mavjud bo'limgan ideal ob'yektga aylantiradi.

Ma'lumki, inson dunyoni jamiyat to'plagan bilimlar, tushuncha, ko'nikma va hakozolar prizmasi orqali aks ettiradi, hatto umuman yangi, ilk qabul qilinayotgan hissiy holatga inson jamiyat madaniyatini anglash pozitsiyasidan yondoshadi. Shuning uchun "sof his etish" haqida gapirish qiyin, insonda u yo'q, chunki anglash to'qimasiga hamisha ajdodlar so'zi, bilimi va tajriba madaniyati mujassamlanadi.

Shunday qilib, dunyo tasviri insonning dunyoga (tabiatga, hayvonlarga, o'ziga dunyo elementi sifatida) munosabati tipini shakllantiradi. U insonga dunyoda ahloq normalarini beradi, uning dunyoga munosabatini belgilaydi.

Lingvistik adabiyotda "dunyoning lisoniy tasviri" atamasi juda ko'p uchraydi, bunga turlicha ahamiyat va mazmun kiritiladi. Dunyoning ikki tasvirini, ya'ni konseptual va til tasvirini farqlash joiz.

Konseptual tasvir ancha boyroq va til tasviridan kengroq, chunki unda fikrlashning turli tiplari shakllanadi. Biroq ular ikkovi ham o'zaro bog'langan. Bu aloqasiz til muloqot vositasi rolini bajara olmaydi. Aynan dunyoning konseptual tasviri - til tasviri manbai. Til so'zlar hosil qilib, ularni so'z birikmasi va gapda bog'lab, konseptual dunyoning ayrim elementlarini anglatadi. Til dunyoning konseptual tasvirining mazmunini tushuntiradi va so'zlarni nutqda o'zaro bog'laydi. Shuning uchun dunyo tasviri tarkibiy qismlari bo'lib so'zlar, formativlar, aloqa vositalari, shuningdek, sintaksik konstruksiyalar qo'llaniladi.

Dunyo olimlarida bir savol tug'iladi: nima uchun dunyoning ob'ektiv tasviri tillarda turlicha ko'rindi, vaholanki barcha halqlarda anglash, fikrlash bir hil

qonuniyatlar asosida bo’ladi? Dunyoning lisoniy manzarasining tillardagi farqi nimaga asoslangan?

K.T. Krushelnitskaya bunday savollarga javoban quyidagicha yozadi, avvalo ba’zi tillardagi farq darajasini kattaytirmaslik va bu farqlarni yuqori baholamaslik lozim. Chunki tillar umumiy sifatlarga ega emas, agarda har kim dunyonni o’zicha tasvirlasa begona tillarni taqqoslash yoki ularni o’rganish mumkin bo’lmas edi”. “Tilda universal invariant va milliy spesifik aspektlarni ko’rsatish mumkin. Birinchilari insonning psixojismoniy xususiyatlari bilan, umumiyligi, uning hayoti faoliyati motivlari o’xshashligi, fikrlash jarayoni tengligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, turli xalqlarning geografik, madaniy, iqlim, tarixiy, iqtisodiy, diniy va boshqa aspektlari bilan belgilanadi. Bular hammasi tilda, uning leksik, leksik-frazeologik tizimida o’z aksini topadi. Shuni aniq aytish mumkinki, tasvirlanayotgan moddiy dunyoning turli til vositasi beriladigan mazmundagi prinsipial farqlar mavjud emasligiga asoslanadi”. Boshqa tomondan, ba’zi halqlar tillarida dunyoning til tasviri o’z detallari bilan farq qiladi va bunday farqlarni turli tillar leksik tizimi bilan to’qnashgan har qanday kishi topa oladi”. Tilda bunday xususiyatlar mavjudligi turli tillardagi so’zlar kamdan-kam hollarda mos kelishi haqida guvohlik beradi. Masalan, qor so’zi shimoldagi ayrim xalqlardagi lug’atlarda hayotiy zaruriyat deb nomlanadi. Yoki shamol so’zi ba’zi halqlar hayotida o’ta muhim ro’l o’ynaydi, shuningdek, tuya, karvon yoki bodom navi kabi turli tillarda muhim hisoblanadi.

Shunday qilib olam manzarasi turli tillarda umumiy, invariant o’ziga xos milliy - spesifik bo’ladi. G.V. Koshanskiy shunday deb yozadi: “Har qanday til inson tili sifatida, til varianti sifatida o’ziga xosligini yo’qotmaydi va voqelikni o’zgartirmaydi, o’z vositalari semantik tizimi jamlanmasi orqali inson konseptual apparatida dunyo yagona tabiatini tasvirlaydi. Har qanday tilning tizimi o’ziga xosligi til birliklari va mazmunlar kombinatsiyasidan iborat”.

Dunyoning lisoniy manzarasi nafaqat til, balki anglash faoliyatining aksi, tarix, geografiya, madaniyat faktorlari bilan bog’langan. Dunyo turli til modellarini yaratish

voqelikni o’ziga xos olamini yaratishga olib kelmaydi. hammasi faqat voqelikning yagona dunyosini ko’rsatish uslublariga borib taqaladi”.

V.N. Teliya shunday deb hisoblaydi:

- madaniyat ham til kabi insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi anglash shakli;
- madaniyat bilan til o’zaro muloqotda bo’ladi;
- madaniyat sub’ekti bilan til - bu hamisha individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat;

- normativlik- til va madaniyat uchun umumiylar bo’lgan xususiyat;
- tarixiylik madaniyat bilan tilning o’ziga xos xususiyatlaridan biri;
- til bilan madaniyatga dinamik antinomiyasi xosdir.

Olam manzarasi bu predmetlar, xususiyatlar, jarayonlarning oddiy “fotosurati” jamlanmasi emas, o’z ichiga nafaqat aks ettirilgan “ob’ektlar”ni oladi, balki sub’yekt pozitsiyasi ham ob’ekt kabi muhimdir. Inson olam tasvirini aks ettirishda faol bo’lgani uchun ularni o’zgartirishi ham mumkin (faoliyatları orqali).

Sotsial - tipik pozitsiya, munosabatlар, baholashlar, millat tilida belgilarga ega bo’ladi va dunyoning lisoniy tasvirini aks ettirishda ishtirok etadi. Masalan, rus tilidagi “Kogda rak na gore svistnet iborasi”, fransuz tilida “Bâtir un chateau en Amérique” o’zbek tilidagi “Tuyaning dumi yerga tekkanda” (hech qachon amalga oshmaydigan ish haqida gapirilganda) iborasi bilan mos keladi. Shunday qilib, olam tasviri umuman insonlar ongida logik tasviri bilan mos keladi. Biroq bunda nutq olam tasviri ba’zi bo’limlari saqlanib qoladi, ularga frazeologiya ham kiradi-tildan tilga farqlanadi.

N.YU.Shvedova tilda 20 ta umumiy mazmun kategoriylarini ko’rsatadi:

- jonlilik, harakat, holat, buyum, o’lchov, vaqt va boshqalar.

Bu kategoriylar tilning mazmun karkasini shakllantiradi. Bu dunyo nutqiy tasvirining mavhum darajasi. Biroq har bir halq uchun xos bo’lgan asosiy mazmunlarning ikkinchi nomini qayta fikrlash obrazli - assotsiativ mexanizmlari mavjud. Masalan, sobaka, le chien, it (salbiy xususiyatlari bilan bir qatorda) sodiqlikni anglatadi va frazeologizmlarda o’z aksini topgan: itdek vafodor, itdek sodiqlik, itnikidek hayot va boshqalar. qur’onda itga harom mahluq sifati beriladi.

Itdek hammaning oyog’iga yopishmoq, itning dumini bosmoq, xotindan vafo talab qilma, vafodorlik va sodiqlikni itdan topasan va hk.

Shunday qilib it so’zi turli halqlarda turli sifatlar bilan belgilanadi va bu turli xalqlardagi fikrlash spetsifikasi turlicha ekani, unda olam tasviri shakllanishiga ta’sir etishi to’g’risida guvohlik beradi.

Dunyoning lisoniy tasvirini yaratishda “millat hayoti ko’zgusi”- frazeologizmlar o’ziga xos ro’l o’ynaydi. Frazeologik birliklarning mazmun-mohiyati xalq tajribasi bilan uzviy bog’langan. Frazeologik birliklar olam tasviridagi ob’ektlarga sifat beradi, bir butun deskriptiv holatni baholaydi, unga munosabat bildiradi. O’z semantikasi bilan frazeologik birliklar inson va uning faoliyatini tasvirlashga yo’naltirilgan.

“Là, le corbeau ne porte pas l’os” (qarg’a u yoqqa suyagini ham olib bormaydi) frazeologizmi “juda uzoq” yoki “narigi dunyoda” ma’nosida. Qarg’a fransuzlarda hosiyatli qush deb tan olingan. Uzoq umr ko’rish va inson ovoziga taqlid qilish bu qushga payg’ambarlik shuxratini keltirgan. Bizdagi irimlarga ko’ra qarg’a shovqin ramzi. Uy yaqinida qarg’a qag’illashi yomon belgi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko’rinib turibdiki, har bir til uchun, har bir madaniyat uchun spetsifik mazmunlar - konnotatsiyalar vujudga keladi. Qoidaga ko’ra “konnotatsiyalar so’zdan kelib chiqadigan assotsiatsiyalarga asoslangan, biroq ular realiyalar xususiyatlari bilan belgilangan: buzoq (xushxulq, mo’min kishi haqida), bozor (shovqin-suronli yer haqida), vinegret (turli aralashmalar to’g’risida), hammom (har qanday issiq joy haqida) va h.k.

Demak, inson o’z faoliyati jarayonida ob’ektiv olamni aks ettirib, o’z bilimlari natijalarini qayd qiladi. Turli tasvirlarda umumiy, invariant va o’ziga xos milliy spetsifik narsalarni topish mumkin. Fikrlash jarayoni o’xshashligi, assotsiativ aloqalar vujudga kelishining umumiy qonuniyatları fransuz va o’zbek tillarida to’liq ekvivalent bo’lgan frazeologik birliklar hosil bo’lishiga olib keladi. Masalan, hadya etilgan otning tishiga qaramaydilar, yettinchi falakda, ko’z qorachig’idek asramoq, yelkadan tog’ ag’darilganday, qil ustida turmoq, burnini ko’tarmoq. Boshqa tomondan, har bir tilda o’zining spetsifik, assotsiativ aloqalar, o’ziga xos ramzlar o’z faktlari bilan (tarixiy,

diniy, madaniy va hakozo) aloqalar mavjud. Olamning lisoniy manzarasini tahlil etish millat madaniyatlari bir-biridan nima bilan farq etishini, dunyo madaniyati darajasida ular bir-birini qanday to’ldirishini anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Арутюнова Н.Д. Национальное сознание, язык, смысл. Лингвистика на исходе XX века: итоги и перспективы. М., 1995. Т.1
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании языка как иностранного. М., 1990
3. Добровольский Д.О. Национально-культурная специфика во фразеологии. Вопросы языкоznания-1997 № 6
4. Zamonaviy va chog’ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik masalalari. Xalqaro ilmiy - amaliy anjuman materiallari. Urganch, 2023 yil.
5. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika asoslari. Toshkent, 2020.

LINGVOKULTUREMALARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI

Zebuniso RAMAZONOVA
*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili 2-fakulteti katta o’qituvchisi*

Lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalaridan biri bu – lingvokulturemadir. Fanda til va madaniyatning uzviy bog‘liqligiga asoslangan til birliklariga nisbatan “lingvokulturema” atamasi ishlatiladi. Bu atama asosida E. Sepir va B. Uorfning til va uning ma’noviy birliklar tizimi u yoki bu xalqning dunyoqarashi, tashqi dunyoni qay shaklda ko‘rishi va anglashi o‘zaro chambarchas bog‘liqligi va mos kelishi nazariyasi yotadi. Bu g‘oyani rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan tilshunoslardan biri V.V. Vorobyev ushbu “lingvokulturema” atamasini til va madaniyat bilan bog‘liq munosabatlarni tadqiq etish imkonini beruvchi lingvamadaniy birlik sifatida fanga kiritgan. Uning fikricha, lingvokulturema - bu til birligining shakl, ma’no va madaniy ahamiyatni o‘z ichiga olgan uyg‘un bir jamlanmasidir (Vorobyev, 2008). So‘zdan farqli ravishda lingvokulturema o‘z tarkibiga nafaqat til (lisoniy ahamiyat kasb etadigan), balki